


## 2020- yilning yanvar-dekabr oylari uchun Jizzax viloyatida qurilish ishlari

**2 766,5**  
mlrd. soʻm



**103,5 %**

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatida jami **2 766,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **103,5 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.


**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

		<b>Holatiga ko'ra:</b>		<b>O'tgan yilga nisbatan, % da</b>	
		<b>01.01.2020- yil</b>	<b>01.01.2021- yil</b>		
	<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1803</b>	<b>2027</b>	<b>112,4</b>	
	<b>Jizzax sh.</b>	<b>784</b>	<b>868</b>	<b>110,7</b>	
	<b>tumanlar:</b>				
	<b>Arnasoy</b>	<b>53</b>	<b>58</b>	<b>109,4</b>	
	<b>Baxmal</b>	<b>64</b>	<b>74</b>	<b>115,6</b>	
	<b>G'allaorol</b>	<b>104</b>	<b>125</b>	<b>120,2</b>	
	<b>Sh. Rashidov</b>	<b>322</b>	<b>351</b>	<b>109,0</b>	
	<b>Do'stlik</b>	<b>48</b>	<b>63</b>	<b>131,3</b>	
	<b>Zomin</b>	<b>116</b>	<b>118</b>	<b>101,7</b>	
	<b>Zarbdor</b>	<b>77</b>	<b>101</b>	<b>131,2</b>	
	<b>Zafarobod</b>	<b>21</b>	<b>25</b>	<b>119,0</b>	
	<b>Mirzacho'l</b>	<b>42</b>	<b>51</b>	<b>121,4</b>	
	<b>Paxtakor</b>	<b>71</b>	<b>80</b>	<b>112,7</b>	
	<b>Forish</b>	<b>57</b>	<b>67</b>	<b>117,5</b>	
	<b>Yangiobod</b>	<b>44</b>	<b>46</b>	<b>104,5</b>	


Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalarini soni,  
01.01.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Jizzax sh. (42,8 %), Sh. Rashidov (17,3 %) va G'allaorol (6,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **101,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **193,1** foizga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,7 %** punktga ko'payib, **3,7 %** ni tashkil etdi.

**2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Jizzax shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **45,6** % i yoki 2019- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan **108,3** %), Zafarobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **44,5** %), va Mirzacho'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **9,9** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **104,3** %) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **75,9 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **4,8 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **98,9 %** ni tashkil etgan holda **2 099,1 mld. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **20,5 %** ni tashkil etdi yoki **566,4 mld. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **114,4 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **60,4** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 706,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,2 %** va **97,8 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar- dekabr

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **80,1 %** i yoki **2 215,6** mld. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**80,1 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **84,3** mld. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **83,5 %** ni tashkil etdi

**83,5 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2 099,1** mld. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **75,9 %** ni tashkil etdi.

**75,9 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **566,4** mld. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **20,5 %** ni tashkil etdi.

**20,5 %**




**2020- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O’sish sur’ati, % da	Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 766,5</b>	<b>103,5</b>	<b>2 215,6</b>
Jizzax sh.	1079,1	102,4	703,2
tumanlar:			
Arnasoy	37,9	100,3	31,7
Baxmal	83,0	102,4	75,8
G’allaorol	118,1	101,6	116,1
Sh. Rashidov	590,3	110,0	580,3
Do’stlik	82,0	101,0	64,4
Zomin	143,6	101,2	123,3
Zarbdor	98,1	101,6	95,0
Zafarobod	174,2	100,8	112,1
Mirzacho'l	51,5	101,4	34,6
Paxtakor	126,5	101,0	124,0
Forish	106,1	101,6	89,9
Yangiobod	76,1	101,4	65,1

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **4,0 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,5 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **49,5 %** punktga ko'payib, **71,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **53,0 %** punktga kamayib, **24,8 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **3,6 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **9,7 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **96,0 % (9,7 % punktga ko'payish)** ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida hammasi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'zgarishsiz qolmoqda.

*ulushi, % da*



2019- yil  
yanvar-dekabr

2020- yil  
yanvar-dekabr



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-dekabr oylarida**

*mldr. so'm*

	Qurilish ishlari hajmi	Shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 682,2</b>	<b>2 206,7</b>	<b>271,0</b>	<b>204,5</b>
Jizzax sh.	866,4	600,1	128,5	137,8
tumanlar:				
Arnasoy	36,2	36,2	-	-
Baxmal	92,9	83,3	9,6	-
G'allaorol	148,6	139,4	9,2	-
Sh. Rashidov	706,0	618,4	51,2	36,4
Do'stlik	64,6	64,6	-	-
Zomin	149,0	107,0	27,2	14,8
Zarbdor	114,3	114,3	-	-
Zafarobod	131,4	131,4	-	-
Mirzacho'l	43,5	15,0	13,0	15,5
Paxtakor	153,4	127,8	25,6	-
Forish	110,6	103,9	6,7	-
Yangiobod	65,3	65,3	-	-


\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

7

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Sh. Rashidov tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 28,0 % i yoki **618,5** mlrd. so'm), shuningdek, Jizzah shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 27,2 % i yoki **600,1** mlrd. so'm), G'allaorol tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 6,3 % i yoki **139,4** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Jizzax viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (72) 221-53-73**